



**THE JADID MOVEMENT AND ITS ACTIVITIES IN THE  
EMIRATE OF BUKHARA**

**Tojiyev Diyorbek Anvar o'g'li**

4th-year Student, Faculty of History and Law Bukhara State University

+998914462824 [tojiyevdiyorbek85@gmail.com](mailto:tojiyevdiyorbek85@gmail.com)

**Abstract**

This article examines the Jadid movement, which emerged in the Emirate of Bukhara in the late 19th and early 20th centuries, focusing on its formation, core areas of activity, and historical significance. The author analyzes the efforts of the Jadids to reform the educational system, establish "new-method" (Usul-i Jadid) schools, and develop the national press and underground organizations within the complex socio-political climate of the Emirate. The paper highlights the intellectual and political struggle led by prominent figures of Bukhara Jadidism, such as Abdurauf Fitrat, Fayzulla Khojaev, and Sadriddin Ayni, as well as the attempts of the "Young Bukharans" party to fundamentally reform the emirate's governance. Based on historical sources, the study evaluates the role of the Bukhara Jadid movement in shaping national identity and early ideas of independence.

**Keywords**

Emirate of Bukhara, Jadidism, new-method school, national press, "Tarbiyai Atfol", "Young Bukharans", reforms, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Khojaev, enlightenment.

**BUXORO AMIRLIGIDA JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING  
FAOLIYATI**

*Tojiyev Diyorbek Anvar o'g'li*

*Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti 4-bosqich talabasi,*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida vujudga kelgan jadidchilik harakati, uning shakllanish shart-sharoitlari,





asosiy faoliyat yoʻnalishlari va tarixiy ahamiyati tadqiq etiladi. Muallif amirlikning murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitida jadidlarning maorif tizimini isloh qilish, yangi usul maktablarini ochish, milliy matbuot va yashirin tashkilotlarni shakllantirish borasidagi saʼy-harakatlarini tahlil qilgan. Maqolada Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xoʻjayev, Sadriddin Ayniy kabi Buxoro jadidlarining yetuk namoyandalari olib borgan maʼrifiy va siyosiy kurashi, shuningdek, „Yosh buxoroliklar“ partiyasining amirlik tuzumini tubdan isloh qilishga qaratilgan harakatlari yoritib berilgan. Tadqiqot natijasida Buxoro jadidchilik harakatining milliy oʻzlikni anglash va istiqloq gʻoyalarining shakllanishidagi oʻrni tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

**Kalit soʻzlar:** Buxoro amirligi, jadidchilik, yangi usul maktabi, milliy matbuot, „Tarbiyai atfol“, „Yosh buxoroliklar“, islohot, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xoʻjayev, maʼrifatparvarlik.

### **ДЖАДИДСКОЕ ДВИЖЕНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ И ЕГО ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ**

**Аннотация:** В данной статье исследуется джадидское движение, возникшее в Бухарском эмирате в конце XIX — начале XX веков, условия его формирования, основные направления деятельности и историческое значение. Автор анализирует усилия джадидов по реформированию системы образования, открытию новометодных школ, развитию национальной прессы и созданию тайных организаций в сложной общественно-политической атмосфере эмирата. В статье освещается просветительская и политическая борьба таких выдающихся представителей бухарского джадидизма, как Абдурауф Фитрат, Файзулла Ходжаев, Садриддин Айни, а также деятельность партии «Младобухарцы», направленная на коренное реформирование эмирского режима. На основе исторических источников раскрывается роль бухарского джадидизма в формировании национального самосознания и идей независимости.

**Ключевые слова:** Бухарский эмират, джадидизм, новометодная школа,





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

национальная пресса, «Тарбии атфол», «Младобухарцы», реформа, Абдурауф Фитрат, Файзулла Ходжаев.

Buxoro amirligida jadidchilik harakati XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida vujudga kelgan, millatning ijtimoiy-siyosiy, maorif va madaniy hayotini tubdan o'zgartirishga qaratilgan eng qudratli milliy yuksalish harakati hisoblanadi. Ushbu davrda Buxoro amirligi bir tomondan feodal tuzum, ijtimoiy qoloqlik va diniy fanatizm changalida bo'lsa, ikkinchi tomondan chor Rossiyasining iqtisodiy va siyosiy mustamlakachilik tazyiqi ostida yashar edi. Mamlakatdagi bunday turg'unlik va adolatsizlik, soliqlar og'irligi hamda amaldorlarning o'zboshimchaligi davrning ilg'or fikrli ziyolilarini millatni qutqarish choralari izlashga majbur qildi. Tatar ma'rifatparvari Ismoil Gasprinskiy tomonidan Qrimda asos solingan yangi g'oyalar va uning „Tarjimon“ gazetasi, shuningdek, yaqin Sharq hamda Rossiyadagi inqilobiy o'zgarishlar Buxoro taraqqiyparvarlarining g'oyaviy shakllanishiga kuchli turtki berdi.

Harakatning dastlabki va eng muhim qadami maorif tizimini tubdan isloh qilish bilan bog'liq bo'ldi. Eski maktablardagi quruq sxolastika va yillar davomida bolalarni savodsiz qoldiruvchi usullarga qarshi o'laroq, Buxoroda ilk bor usuli jadid, ya'ni tovush tizimiga asoslangan yangi maktablar tashkil etildi. Mirzo Abdulvohid Munzim o'z hovlisida ochgan ilk yangi usul maktabi bu boradagi amaliy harakatlarning boshlanishi edi. Sadriddin Ayniy va boshqa ma'rifatparvarlar ushbu maktablar uchun zamonaviy darsliklar yaratib, tarix, geografiya, hisob va tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlarni o'quv dasturiga kiritdilar. Bu o'zgarishlar yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, jamiyatda dunyoviy bilimlarga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirdi va milliy uyg'onishning mustahkam poydevorini qo'ydi. Maorif sohasidagi islohotlar bilan bir qatorda, jadidlar xalq ommasiga o'z g'oyalarini yetkazishning eng samarali vositasi o'laroq milliy matbuotni maydonga olib chiqdilar. Buxoroyi sharif va Turon kabi ilk mahalliy gazetalarning nashr etilishi hudud ijtimoiy hayotida tub burilish yasadi. Ushbu





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

nashrlarda amirlikdagi poraxorlik, qoloqlik, adolatsiz boshqaruv va ta'lim inqirozi ochiq-oydin tanqid ostiga olindi. Garchi bu gazetalar amirlik ulamolari va chor ma'murlarining tazyiqi bilan qisqa muddatda taqiqlab qo'yilgan bo'lsa-da, ular xalqning ijtimoiy ongini uyg'otish va ziyolilarni umumiy maqsad atrofida jipslashtirish vazifasini to'liq bajarishga ulgurdi. Matbuot bergan turtki natijasida harakat tarqoq ma'rifatparvarlikdan uyushgan siyosiy kuchga aylana boshladi.

Amirlik ma'murlarining tinimsiz ta'qiblari tufayli jadidlar o'z faoliyatlarini maxfiy ravishda davom ettirishga majbur bo'ldilar va Tarbiyai atfol yashirin jamiyatini tuzdilar. Ushbu tashkilot o'z oldiga millat taqdirini o'zgartira oladigan yetuk kadrlarni tayyorlash vazifasini qo'ydi va iqtidorli buxorolik yoshlarni yashirincha Turkiyaga o'qishga yuborishni yo'lga qo'ydi. Stambulda tahsil olgan yoshlar u yerdagi ilg'or demokratik g'oyalar va davlatchilik tizimini o'rganib, keyinchalik Buxoroda islohotlar dasturini tuzishda faol ishtirok etdilar. Bu davrga kelib harakat o'zining madaniy-ma'rifiy chegarasidan chiqib, sof siyosiy yo'nalishga o'tdi va uning negizida Yosh buxoroliklar siyosiy partiyasi shakllandi.

Harakatning g'oyaviy rahnamosi Abdurauf Fitrat va siyosiy yetakchisi Fayzulla Xo'jayev boshchiligidagi bu guruh amir Said Olimxondan davlat boshqaruvini tubdan o'zgartirishni talab qildi. Ular taqdim etgan islohotlar dasturi mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya joriy etish, xazina va amir mulkini ajratish, soliqlarni qat'iy me'yorga solish hamda vakillik organi bo'lgan Majlisni tuzishni ko'zda tutar edi. Biroq amir va uning atrofidagi eskilik tarafdorlari bu talablarni qat'iy rad etib, taraqqiyparvarlarga qarshi shafqatsiz qatliomlarni boshlab yubordi. Ko'plab jadidlar qamoqqa olindi, surgun qilindi yoki jismonan yo'q qilindi, bu esa amirlik bilan ziyolilar o'rtasidagi aloqalarni butunlay uzdi.

Buxoro amirligi ag'darilib, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgandan keyin jadidlar hokimiyat tepasiga kelgan bo'lsalar-da, ularning milliy va mustaqil davlat qurish borasidagi rejaları sho'rolar imperiyasining mustamlakachilik siyosati tufayli





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

barbod bo‘ldi. Keyinchalik, XX asrning o‘ttizinchi yillaridagi Katta terror davrida Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev va boshqa yuzlab Buxoro jadidlari sovet rejimi tomonidan butunlay qatag‘on qilindi. Shunga qaramay, Buxoro jadidchiligi o‘z millatining ozodligi va baxt-saodati yo‘lida jon fido qilgan fidoyilar harakati sifatida tarixda qoldi. Ularning ko‘targan g‘oyalari, ta‘lim va davlatchilik sohasidagi qarashlari bugungi mustaqil davlat poydevorini belgilab beruvchi eng qimmatli tarixiy meros hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligidagi jadidchilik harakati shunchaki maorifni yangilash yoki ijtimoiy hayotni isloh qilishga qaratilgan qisqa muddatli urinish emas, balki millatning ijtimoiy-siyosiy ongini tubdan o‘zgartirgan va uni g‘ofillik uyqusidan uyg‘otgan chinakam intellektual inqilob edi. Jamiyatning eng o‘qimishli va fidoiy qatlamini birlashtirgan bu harakat qoloq feodal tuzum va tashqi mustamlakachilik changalida qolgan millatni qutqarishning yagona yo‘li ilm-fan, ma‘rifat va siyosiy mustaqillik ekanini amalda ko‘rsatib berdi. Jadidlar o‘z g‘oyalari uchun nafaqat mol-mulklarini, balki aziz jonlarini ham fido qildilar va bu yo‘lda mislsizf ojialarni boshdan kechirdilar. Buxoro jadidlarining tarixiy fojiasi ularning o‘z g‘oyalarini amalga oshirish jarayonida ikki tomonlama murosasiz kuch — ichki diniy fanatizm hamda tashqi sho‘rolar imperiyasining shafqatsiz siyosati o‘rtasida qolib ketganliklarida edi. Biroq ularning jismonan yo‘q qilinishi millat qalbida uyg‘ongan istiqlol va ozodlik ruhini so‘ndira olmadi. Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev va boshqa o‘nlab millat fidoyilarining ta‘lim, madaniyat va erkin davlatchilik borasidagi orzu-istaklari va ilgari surgan g‘oyalari yillar o‘tib bugungi mustaqil O‘zbekiston Respublikasining poydevoriga aylandi. Buxoro jadidchiligi qoldirgan boy ma‘naviy meros bugungi kunda ham milliy o‘zlikni anglash, ilm-fanni rivojlantirish va taraqqiyparvar jamiyat barpo etishda eng muhim tarixiy mayoq bo‘lib xizmat qilmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. D. Jamolova. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri – XX asr boshlari). Toshkent. “Muharrir” nashriyoti.2021.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000.
3. Sadriddin Ayniy. "Esdaliklar"// 1-tom. O'zSSR davlat badiiy adabiyot nashriyoti.1963.
4. "Jadid ma'rifatparvarlik harakatining g'oyaviy asoslari". Toshkent. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. 2016.
5. L.P. Muhamedjonova. M.M. Alimova. "Buxoro jadidchilik harakati tarixidan". Buxoro. "Durdona nashriyoti". 2019
6. Nusratillo Naimov. "Buxoro jadidlari". Toshkent. "Fan" nashriyoti. 2000.
7. Temirov Farrux Umedovich."Mustaqillik yillarida Sadriddin Ayniy ilmiy-adabiy me'rosining o'rganilishi".
8. Feruza Bobojonova. "Buxoro amirligida ta'lim tizimi. XIX asr oxiri – XX asr boshlari". "Adib" nashriyoti. 2014.

